

Lundby suv havzasidagi qoidalar

Quyida siz bizning ko'rsatmalarimizni hamda mijoz sifatida havfsiz, qiziqarli va maroqli tashrifga qanday qilib o'z hissangizni qo'shishingiz mumkinligi haqida o'qishingiz mumkin!

Agar biror yordam kerak bo'lsa yoki savollaringiz bo'lsa, u holda hech ikkilanmasdan suv havzasi xodimlariga murojat qiling.

Lundby suv havzasidagi qoidalar

- Suv havzasiga tashrif hamda undan foydalanish butunlay o'z zimangizda (ya'ni hamma masuliyat o'z bo'yningizda)
- Suv havzasi maydonida doimo xodimlar mavjud, ammo o'zingizning hamda boshqalarning havfsizligiga o'zingiz masulsiz.
- Doimo qo'l ostingizdagi yosh bolalarga ko'z quloq bo'ling! Butun tashrifingiz davomida yosh bolalaringizga o'zingiz masulsiz.
- Barcha 18 yoshdan kichik va suzishni bilmaydigalar ar doimo suzishni biladigan (18 yoshdan katta) va ularga masul shaxs bilan cho'milishi lozim.
- Xodimlar qoidalarga rioya qilmayotgan yoki o'zini yomon tutgan mijozlarni suv havzasidan chiqarib yuborishga xaqli. Chiqarib yuborilganda, kirish uchun to'langan pul qaytarilmaydi.
- Boshqa mijozlar havfsizligi uchun suv havzasida rasmga/videoga olish hamda boshqa shovqin soluvchi aparatlardan foydalanish taqiqlanadi.
- Suv havzasi maydonida chekish taqiqlanadi.

Suv havzasi gigiyenasi (ozodalik)

- Siz doimo suzish, suzish mashg'ulotlari va saunadan oldin butun tanani, sochlaringizni yaxshilab yuvishingiz lozim. Kosmetika ham yuvib tashlanishi kerak.
- Agar sochingizni yuvishni istamasangiz, u xolda boshingizga suv havzasi mahsus qalpog'ini kiying, havza hududiga bunday qalpoqlar mavjud.
- Suv havzasi uchun mahsus kiyimlardan/burkini (yarim yopiq)lardan foydalaning. Ba'zi toza lycra kiyimlariga ham ruhsat beriladi, suzishdan oldin bu haqida xodimlardan so'rang.
- Suzish kiyimlari ichidan ichki kiyim kiyish mumkin emas.
- Podguznik taqadigan bolalarga mahsus moslashritilgan suzish kiyimlarini kiydirish lozim.
- Saunaga kiyimsiz holatda kiriladi, o'tirish uchun o'z sochig'ingizdan foydalanasiz.

Boshqa ma'lumotlar

- Suv havzasiga kiruvchi barcha odamlar kirish uchun pul to'laydilar, xatto shunchaki birga kelgan bo'lsangiz ham. To'luv faqat bir martalik bo'lib, agar biror joyga chiqib ketib, yana qaytib kirmoqchi bo'lsangiz, u holda yana boshqatdan to'lovni amalga oshirishingiz lozim bo'ladi.
- Kattalarsiz cho'milmoqchi bo'lsangiz, u holda 200 metrgacha suza oladigan va yoshingiz kamida 12 da bo'lishi lozim.
- Agar yozilish (relaksatsiya) bo'limiga kirmoqchi bo'lsangiz, u holda 18 yoshga to'lgan hamda `oltin` kirish to'lovini to'lashingiz lozim.
- Kiyimlaringiz uchun qutichalarni qulflashga osma qulf kerak bo'ladi. O'zingiznikini olib keling yoki ro'yhatxonadan sotib oling. Qulflangan qutilar har kuni kechki payt bo'shatadi.
- Suzish havzasiga kirishda va ro'yhatxonada qimmatli narsalaringiz uchun qutilar mavjud va ularni osma qulf yoki 10 kronlik tanga bilan qulflash mumkin.
- Suz havzasining ichki maydoniga oyoq kiyim bilan kirish mumkin emas. Havzaning kirish qismida oyoq kiyimlar qoldiriladi. Agar oyoq kiyimingizni qutiga qo'ymoqchi bo'lsangiz, u holda oyoq kiyim ustidan kiyiladigan mahsus baxilalardan foydalaning.
- O'z qimmatli narsalar/kiyimlaringizga o'zingiz masulsiz.
- Ehtiyot bo'lib yuring! Suv havzasi maydonida doimo toyinib yiqilish havfi mavjud.

Sport zal/ guruh mashg'ulotlari

- Bizning guruh mashg'ulotlarida qatnashish uchun yil davomida kamida 14 yoshga to'lishingiz lozim.
- Sport zalida shug'ullanishingiz uchun yil davomida kamida 16 yoshga to'lishingiz lozim.
- Boshqa mijozlar va bolalarizngizning havfsizligi uchun sport zaliga bolalarni olib kirish taqiqlanadi.
- O'z sochig'ingizni olib keling (sport zal uchun).
- Og'irlik toshlarini o'z joyiga qoyganingiz hamda o'zingiz foydalangan uskunalarni artib qo'yganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.

Biz dopinga qarshi loyihada ishtirok etamiz - 100% toza va mustahkam mashg'ulotlar tarafdorimiz.

LUNDBYBADET



Mjölby Kommun